



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANILISHI

Akbaraliyeva Xurshida Shavkatjon qizi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179232>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar. mentalitet, paremiologiya, lingvokulturologiya, o'xshashlik, qiyoslash.

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o'rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ham ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi.

V.Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog'liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalay ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya'ni lingvokulturologiya asoslay oladi. Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlatilyapti. Teliya - maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman olganda to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu deb hisoblaydi. Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to'xtalgan holda olimlardan Nida maqollarni o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Ingliz maqoli: *"It takes two to tango"* – *"Tangoga ikki kishi bilan tushiladi"*. Bizni madaniyatimizga "tango" degan tushunchani o'zi yod. O'zbek maqollari orasida xuddi shu maqolga mos, *"Qarsak ikki qo'ldan chiqadi"* ya'ni bir qo'l bilan biz qarsak chala olmaymiz. Ingliz maqoli *"The nearer the church, the farther from God"* – *"Cherkovga qancha yaqinlashsang Xudodan shunchalar uzoqlashasan"*. Bizni o'zbek madaniyatimizda cherkov va uning an'analari va yo'nalishlari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Xuddi ingliz maqollariga o'xshab o'zbek maqollarida Xudo (God) tushunchasiga mos maqollar ham mavjuda *"Erta turganga Xudo ko'p rizq beradi"*, *"Gadoning xoli harob bo'lsagina, Xudoni axtarar"*. *"Mehmon atoyi Xudo"*. Biz yana maqol orqali cherkov-Xristian olamining muqaddas dargohi ekanligini, islom olamida esa masjid shu o'rinda ekanligini anglashimiz mumkin. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: Ko'cha – xandon, uy-zindon tarzida ifodalanadi. Unda ishlatilgan "farishta", "uy", "shayton" kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, millatlarning o'ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so'z ochmay ilojimiz yo'q, albatta. Chunki xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf- odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. Asosan, har ikki tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko'proq farqli tomonlarini o'rganib, o'zaro o'xshash tomonlarining umumiy jihatlarini ifodalashga harakat qilamiz. Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, *"Maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati"*. Turli tillarning



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi. "Mentalitet" tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet "fikrlash doirasi, dunyoqarashi" mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa "xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi". Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu "xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir". Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu "milliy xarakter" xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq. Fransuz maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri haqida so'z yuritib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Dunyo millatlari orasida ushbu xalq vakillari mehnatsevarligi va ishchanligi bilan ham juda mashhurdir.. Bu jihat ingliz maqollarida ham o'z aksini topadi: inglizcha,

1. The labourer is worthy, of his hire. (Ishlab topganning — osh, Ishlamay topganning — tosh). 2. Work shall not eat, He that will not. (Ishlamagan — tishlamas, Ishyoqmasga kun kulmas). 3. He that is afraid of wounds must not come near a battle. (Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas, Chigirtkadan qo'rqqan — ekin). 4. The early bird catches the worm. (Muvaffaqiyatga erishish uchun erta turish kerak). 5. Actions speak louder than words. (Harakatlar so'zlardan ko'ra balandroq gapiradi.). 6. Easy come, easy go. (Oson kelgan narsa oson ketadi.) 7. A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds. (Ishlamasdan so'zlovchi odam o't bosgan bog'ga o'xshar. 8. Head cook and bottlewasher. (Ham bosh oshpaz, ham tovoq yuvuvchi. Bir yigitga yetmish ikki hunar oz). 9. Handsome is that handsome does. (Ishi go'zal odam, o'zi ham go'zaldir. Ishing bo'lsa sharofat, Hech ko'rmaysan kasofat). 10. Never put off till tomorrow what may be done today. (Bugun qila oladigan ishni hech qachon ertaga qoldirma. Bugungi ishni ertaga qo'yma). 11. Speak less but do more. (Ko'p gapirma, ko'p ishla. Kam gapirib ko'p ishla). 12. The workman is known by his work. (Usta ishi bilan mashhur. Usta, ishni qilar yuzta).

Ko'rib turganingizdek mehnat haqidagi maqollarning o'zbek va ingliz tillarida mavjudligi har ikkala xalqning o'ta mehnatsevar va ishchan ekanligini ko'rsatadi. Shu bois qayd etgan barcha maqollarimiz xalqlarning turmush tarzida o'ta keng ko'lamda foydalaniluvchi mavzulardan biridir. Shu o'rinda ularning ma'no doirasi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

haqida soʻzlasak ham huddi bir xil narsani yaʼni maqollarning qoʻllash uslubi aynan bir xil ekanligini tushuna olamiz. Masalan: “A man of words and not of deeds is like a garden full of weeds” maqolini oʻzbek tiliga tarjima qilganda “Ishlamasdan soʻzlovchi odam oʻt bosgan bogʻga oʻxshar” maʼnosini beradi. Bu maqol orqali biz oʻta ish yoqmas, dangasa biroq juda soʻzamol kishilarni tasvirlaymiz. Ammo biz inglizcha maqolning oʻzbekchadagi tarjimasini yoki maʼnosini har doim ham oʻzbek tiliga tayyor holda ishlatolmaymiz. Buning juda chiroyli va muqobil varianti sifatida “Ish bilsang tuzarsan, bilmasang buzarsan”ni keltirishimiz mumkin. Oʻzbek tilida bu maqolga ekvivalent sifatida “Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar” maqolidan ham foydalansak boʻladi. Fikrimizning yana bir isboti sifatida inglizcha “Head cook and bottlewasher” maqolini koʻrib chiqsak. Maqolning oʻzbekchadagi tarjimasini “Ham bosh oshpaz, ham tovoq yuvuvchi”. Maqolning maʼnosi shuki, bir odam bir nechta ish bilan shugʻullanadi, yoki bir vaqtning oʻzida bir nechta kasb egasidir. Bir qarashda maqol tarbiyaviy ahamiyatga ega va mehnat qilishga undovchi jihatlarni koʻrsatadi. Ammo oʻzbekchadagi tarjima har doim ham maqolning aslini saqlab qolmasligi mumkin va biz buni har doim ogʻzaki nutqda ham, yozma nutqda ham tilga tayyor holda faol ishlatolmaymiz. Maqoldan kelib chiqayotgan maʼno har doim ham uni tashkil etayotgan soʻzlarning maʼnosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan bogʻliqdir. Uning ishlatilayotgan vaqti va vaziyatiga qarab ham u yangi maʼnoda qoʻllanilishi mumkin. Yaʼni maqol qoʻllanilganda nimga urgʻu qaratilgani juda muhim sanaladi. Maqol ham ijobiy ham salbiy qoʻllanilishi mumkin. Shu oʻrinda maqollardagi obrazlilikning kuchlilik bir maqolni har ikkala tilda bir xil talqin etilishiga olib keladi.

Farzandlar, bolalar haqidagi maqollar oʻzbek xalqining eng sevimli mavzularidan biridir, chunki oʻzbeklar bolajon xalq boʻlib, ona va bolaga boʻlgan eʼtibor ahamiyatga molik: “Ona bilan bola – gul bilan lola”, “Bolali uy – bozor, bolasiz – uymozor”, “Bolaning bolasi – qandin oʻrik donasi”. Ona va bola haqidagi maqollardan nafaqat kundalik turmushda, balki yozuvchilarning asarlarida ham keltirishimiz mumkin. Misol sifatida mashhur oʻzbek yozuvchisi Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi ona va bola mavzusiga oid maqolning asarda ishlatilish oʻrmini koʻrib chiqamiz: “ – Qargʻish urgan odamni peshonasi ana shunday boʻladi. – Enani qargʻishi bolaga urmaydi. Ena, enani qargʻishi bolaga urmaydi. Ogʻzingizni toʻldirib qargʻay bering, baribir qargʻishingiz menga oʻtmaydi! Onamiz tovuqlar koʻz koʻrinib donlasin uchun – soʻri girdilatib don sochdi. Seni men emas-seni Xudo qargʻagan. Xudo qargʻagan? Eb-e, men xudoga nima yomonlik qildim-e? Xudo nima deb qargʻagan-e? “Xudo, iloyim, shu oʻzbek degichni topgani aziz



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

mehmoniga buyursin, deb qarg'agan." Parchada keltirilgan maqol "Enani qarg'ishi bolaga urmaydi" (Otaning qarg'ishi o'q, Onaning qarg'ishi yo'q. "Topganing to'yiga buyursin") bu shuni anglatadiki, farzand ona uchun qancha azob–uqubat keltirsa ham, ona hech qachon farzandini qarg'amaydi, qarg'asa ham u chin ko'ngildan bo'lmaydi. O'zbek xalqini qay daraja mehmondo'st ekani, u tabiatan shunday yaralgani parcha oxiridagi jumlada keltirilgan. O'zbek xalq maqollaridagi mentalitet tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo'stlik to'g'risida eslamay ilojimiz yo'q. Maqollarimizda mehmonga bo'lgan hurmat, bag'rikenglik yaqqol ko'rinib turadi. Misol uchun: "Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan". Yaxshilik, ezgulik kabi mavzular ham ko'proq o'zbek maqollarida uchraydi desak yanglishmaymiz, chunki asrlar davomida ota bobolarimizdan kelayotgan bu kabi fazilatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Isbot uchun quyidagi maqollarni keltiramiz. "Yaxshilarga yondashtir, Yomonlardan adashtir", "Yaxshilik qilib suvga ot bilsa baliq, bilmasa Xoliq". Bu yerda diniy tushuncha bor Alloh bilan bandasini bog'lab turadigan eng yaqin yo'l bu suv. Masalan, yomon tush ko'rsa suvga aytishi, odamni Jin chalsa daryodan qayiqda o'tkazish, yaxshilik qilib uni suvga otishi, Sirdaryo va shunga o'xshash daryolardan o'tyapganda tilaklar tilashi bu Alloh va bandasini suv bilan bog'laydigan nazariy va ilmiy isbotini topmagan tushunchalardir.

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М:Русский язык, 1985. – 942с.
2. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Т.: ФАН, 2006.
3. Knowles, E. (2009) Little Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford University Press.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari . – T.: Sharq, 2005. –508 b.